TABIIY FAN DARSLARIDA O‘QUVCHI SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM MUHITINI YARATISH

Davletova Hamida Xasan qizi,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodisti
hamidadavletova293@gmail.com
+998 (99) 347-26-06
https://doi.org/10.5281/zenodo.17811205

Annontatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti mazmuni, uning zamonaviy ta’limdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Avvalo, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti tushunchasi, uning an’anaviy yondashuvdan farqli jihatlari hamda shaxsiy rivojlanish, hamkorlik va mustaqil fikrlashni shakllantirishdagi o‘rni izohlanadi. Shuningdek, HPL (Highly Performing Learning) va STAR Legacy modellari asosida darsni tashkil etish usullari tahlil qilinib, ularning o‘quvchilarda chuqur bilim olish, refleksiya qilish va real hayotiy vaziyatlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida “SWOT” tahlili va “FSMU” metodining qo‘llanishi, ularning o‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, kuchli va zaif tomonlarini baholash, imkoniyat va xatarlarni aniqlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi amaliy ahamiyati ochib beriladi. Ushbu metodlar orqali ta’lim jarayonida o‘quvchilar nafaqat bilimlarni o‘zlashtiradi, balki o‘zini o‘zi rivojlantirishga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo‘naltiriladi. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan o‘rganish muhitini yaratish ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, shaxsiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi va o‘quvchilarni XXI asr kompetensiyalari bilan ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *HPL (How People Learn) modeli, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, STAR Legacy modeli, refleksiya, psixologik qulaylik, “SWOT” tahlil, “FSMU” metodi, integratsion ta’lim.*

Создание ориентированной на учащихся образовательной среды на уроках естественных наук

Давлетова Хамида Хасановна,
Национальный институт педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони Методист отдела методического обслуживания
hamidadavletova293@gmail.com

Аннотация: *В данной статье раскрывается сущность ориентированной на учащихся образовательной среды, а также её роль и значение в современном образовании. Прежде всего объясняется понятие образовательной среды, ориентированной на ученика, подчёркиваются её отличия от традиционного подхода, а также её важность в формировании личностного развития, сотрудничества и самостоятельного мышления учащихся. Далее анализируются методы организации урока на основе моделей HPL (Highly Performing Learning) и STAR Legacy, показывая, что данные подходы расширяют возможности учащихся для глубокого усвоения знаний, рефлексии и адаптации к реальным жизненным ситуациям. Кроме того, рассматривается применение SWOT–анализа и метода FSMU в процессе обучения, ориентированного на учащихся. Подчёркивается их практическая значимость в развитии у школьников навыков самостоятельного принятия решений, оценки*

сильных и слабых сторон, выявления возможностей и угроз. Посредством данных методов учащиеся не только осваивают знания, но и направляются на саморазвитие, а также на формирование критического и творческого мышления. В целом создание ориентированной на учащихся учебной среды повышает эффективность образовательного процесса, создаёт благоприятные условия для личностного развития и способствует формированию у учащихся компетенций XXI века.

Ключевые слова: *Модель HPL (How People Learn – "Как люди учатся"), ориентированное на учащегося обучение, модель STAR Legacy, рефлексия, психологический комфорт, SWOT–анализ, метод FSMU, интегративное обучение.*

Creating a learner-centered educational environment in science classes

Davletova Hamida Khasan qizi,
Abdulla Avloni National Institute of Pedagogical MasteryMethodical Service Department Methodologist
hamidadavletova293@gmail.com

Abstract: *This article examines the essence of a learner–centered environment, as well as its role and significance in modern education. First, it implies the concept of a learner–centered educational environment, highlighting its differences from the traditional approach and the importance to foster collaboration, personal development and independent thinking. Furthermore, the research analyzes teaching methods based on the HPL (Highly Performing Learning) and STAR Legacy models through demonstrating how these approaches enhance students' opportunities for deep learning, reflection, and adaptation to real-life situations. In addition, It reveals the application of SWOT analysis and the FSMU method in learner–centered education, emphasizing their practical importance in developing students' independent decision–making skills, evaluating strengths and weaknesses, and identifying opportunities and threats. Through these methods, students not only acquire knowledge but also direct toward self–development, as well as critical and creative thinking. Overall, creating a learner–centered learning environment increases the effectiveness of the educational process, provides favorable conditions for personal development, and contributes to provide learners with 21st–century competencies.*

Keywords: *HPL (How People Learn) model, Learner–centered education, STAR Legacy model, Reflection, Psychological comfort, SWOT analysis, FSMU method, Integrative education.*

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim muhiti nima?

Mamlakatimizda so'nggi yillarda milliy o'quv dasturlari yangilanishi jarayonida interfaol metodlar, mustaqil ta'lim topshiriqlari va amaliy mashg'ulotlar ulushi ortib bormoqda. Bu esa o'quvchilarga yo'naltirilgan o'rganish muhitni yaratish uchun shart-sharoitlar yaratilayotganidan dalolat beradi.


O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim muhiti – bu o'quv jarayonida o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va individual rivojlanish sur'atlarini markazga qo'yadigan pedagogik yondashuvdir. Bunday muhitda o'qituvchi asosiy bilim manbai yoki nazoratchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va o'quv jarayonini tashkil qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi esa jarayonning faol ishtirokchisi bo'lib, mustaqil o'rganish, izlanish, fikrlash va qaror qabul qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunday ta'limning asosiy g'oyasi – har bir o'quvchini o'z salohiyatini to'liq namoyon qilishga yo'naltirish, uning ichki motivatsiyasini kuchaytirish va o'quv jarayoniga mas'uliyatni oshirishdir [1].

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuv konstruktivizm tamoyillariga asoslanib, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchining faoliyat jarayonida hosil qilinadi, uning avvalgi bilim va tajribasi bilan bog'lanadi. Ta'lim muhi-

ti qulay, ochiq, xavfsiz va interfaol bo‘lib, unda o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda etishi, savollar berishi, xatolardan qo‘rqmasdan tajriba o‘tkazishi mumkin. Baholash tizimi ham jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi, rivojlantiruvchi bo‘lib, o‘quvchining yutuq va ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitida differensiallashtirish, moslashtirilgan topshiriqlar, loyihaviy faoliyat, guruhiy ishlar, muloqot va hamkorlik asosiy o‘rin tutadi. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi, muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularni real hayotga tayyorlaydi hamda har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

HPL va STAR Legacy modellari asosida darsni tashkil etish

HPL (How People Learn) – bu ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun ishlab chiqilgan pedagogik model bo‘lib, o‘quvchilar qanday o‘rganishini tushuntiradi [2]. Model to‘rt asosiy yo‘nalishga tayangan (1-rasm):



1-rasm. HPL va STAR Legacy model yo‘nalishlari

1. O‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim (Learner – centered) – o‘quvchining avvalgi bilimlari, tajribasi va qiziqishlarini hisobga olish. O‘quvchining individual farqlarini inobatga olish, uning o‘z o‘rganish jarayoniga mas’uliyatini oshiradi.

2. Bilimga yo‘naltirilgan (Knowledge – centered) – ta’lim jarayonida bilimlarni chuqur tushunishga yo‘naltirish, faktlarni yod olishdan ko‘ra, mantiqiy bog‘lanishlar va tushunchalar tizimini shakllantirish.

3. Baholashga yo‘naltirilgan (Assessment-centered) – o‘quvchilarning rivojlanishini doimiy kuzatish, teskari aloqa berish, o‘zini-o‘z baholash va o‘zaro baholash imkoniyatlarini yaratish.

4. Jamoaga yo‘naltirilgan (Community-centered) – o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, muloqot va qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirish, oila va jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Har bir yo‘nalish o‘quvchilarning bilim olish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Geografiya darsida o‘quvchilar o‘z hududlari bo‘yicha iqlim o‘zgarishi bo‘yicha tahlilini tayyorlaydi. O‘qituvchi ularga resurslar beradi, savollar beradi, natijada, o‘zaro baholash o‘tkaziladi. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitni yaratishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim (2-rasm):


1. Individual yondashuv – o‘quvchining qobiliyatini, o‘rganish uslubini, qiziqishlarini inobatga olish.

2. Faollik va ishtirok – o‘quvchilarni bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish.

3. Mustaqillik – o‘quvchilarni o‘z o‘rganish faoliyatiga mas’ul bo‘lishga undash.

4. Hamkorlik – o‘qituvchi va o‘quvchilar hamda o‘quvchilar o‘zaro hamkorligini rivojlantirish.

5. Refleksiya – o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va xatolardan saboq olish imkonini yaratish [3].



2-rasm. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitni yaratish tamoyillari.

Har bir darsda o‘quvchilarga mustaqil ishlash, juftlik va guruh bo‘lib ishlash, shuningdek, o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyati yaratiladi.

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitni shakllantirishda quyidagi komponentlarga e’tibor berish kerak:

a) Psixologik qulaylik – darsda o‘quvchilar erkin fikr bildira oladigan, savol berishdan qo‘rqmaydigan muhit yaratish.

b) Jismoniy muhit – sinf xonasi joylashuvi va jihozlari guruhda ishlash, munozara o‘tkazish imkonini beradigan tarzda bo‘lishi.

c) Metodik yondashuv – dars jarayonida interfaol metodlardan, loyihaviy ishlardan va amaliy topshiriqlardan foydalanish.

STAR Legacy modeli – STAR Legacy modeli darsni bosqichma-bosqich samarali tashkil etish uchun ishlab chiqilgan. Bu model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

Challenge (muammo) – o‘quvchilarni jalb qiluvchi savol yoki vaziyatdan boshlash.

Initial Thoughts (dastlabki fikrlar) – o‘quvchilarning mavjud bilimlarini va taxminlarini aniqlash.

Perspectives – Resources (manbalar) – yangi bilimlarni olish uchun qo‘shimcha resurslar bilan ta’minlash.

Assessment (baholash) – o‘zini-o‘z baholash, o‘zaro baholash va o‘qituvchidan teskari aloqa olish.

Wrap-Up (yakun) – olingan bilimlarni umumlashtirish va mustahkamlash [4].

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitida o‘qituvchining roli tubdan o‘zgaradi. U endilikda faqat bilim yetkazuvchi emas, balki o‘quv jarayonining yo‘lboshlovchisi, maslahatchisi, motivatori va faol hamkori sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, bilimni o‘z tajribasi asosida anglab olishga yo‘naltiradi, ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlaydi va muntazam ravishda mazmunli teskari aloqa taqdim etadi. Bunday pedagogik yondashuv o‘quvchilarda mas’uliyat, faollik, tashabbuskorlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash kabi muhim kompetensiyalarning shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Dars jarayonini samarali tashkil etish uchun, avvalo, kutilayotgan natijalarni aniq belgilab, ularni o‘quvchilar bilan birgalikda muhokama qilish tavsiya etiladi. Bu o‘quvchilarga darsning maqsadi va yo‘nalishini anglashga yordam beradi. Shuningdek, savol-javob orqali o‘quvchilarning mavjud bilimlarini aniqlab olish, ularning mavzuga tayyorgarlik darajasini baholash imkonini beradi. Har bir mavzu davomida o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin va asosli tarzda bayon etish imkonini yaratish muhim bo‘lib, bu ularning faolligi va ishtirokini oshiradi. Baholash jarayonining shaffof va tushunarli bo‘lishi o‘quvchilarga o‘z natijalarini anglash va ularni yaxshilashga intilishga yordam beradi. Dars yakunida esa refleksiya uchun alohida vaqt ajratilib, “Bugun nimalarni o‘rgandim?” kabi savollarga javob yozish orqali o‘quvchilar o‘z o‘quv faoliyatini tahlil qilishga undaydi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limda “SWOT” va “FSMU” metodlaridan foydalanish

“SWOT” tahlil – tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va h.k.) o‘qitish jarayonida darslarni rejalashtirish, ta’lim strategiyasini tanlash va o‘quv dasturining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun juda foydali metod hisoblanadi. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitni yaratishda “SWOT” tahlil qulay usuldir.

Namuna: “Issiqlik almashinuvi” mavzusi bo‘yicha “SWOT” tahlili.

“FSMU” metodi – bu ta’lim jarayonida **“Fikr – sabab – misol – umumlashtirish”** tamoyiliga asoslangan mantiqiy va izchil fikrlashni rivojlantirish strategiyasi bo‘lib quyidagicha tatbiq qilinadi. FSMU – mantiqiy fikrlashni o‘rgatish va o‘quvchilarning javoblarini *izchil, tushunarli va asosli* qilish uchun ishlab chiqilgan metod [6]. Bu usul ko‘proq *kritik fikrlash, debate* va *esse yozish* darslarida qo‘llanadi, shu bilan birga har qanday fan uchun moslashtirilishi mumkin. Bu metodning asosiy maqsadi “shunchaki fikr bildirish” o‘rniga, fikrni dalillar va misollar bilan mustahkamlash, so‘ng uni umumlashtirishdir. “FSMU” metodining bir qancha afzallik tomonlari mavjud bo‘lib, jumgan bo‘lib, fizika darslarida qo‘llashga qulay. O‘quvchilar faoliyatini, uslubini, dars sharoitini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1-jadval.

“SWOT” tahlili

S – Strengths (Kuchli tomonlar) Tabiiy fanlarda kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmalari faol rivojlanadi.	**W – Weaknesses (Zaif tomonlar)** Mavzu murakkab bo‘lgani uchun nazariy tushunchalarni amaliyotga tatbiq qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.
O – Opportunities (Imkoniyatlar) Kompyuter simulyatsiyalari, virtual laboratoriyalar va internet manbalari yangi o‘qitish imkonini beradi.	**T – Threats (Tahdidlar)** Laboratoriya jihozlari yoki texnik vositalarning yetishmasligi dars sifatiga salbiy ta’sir qiladi.

S (Strengths) – kuchli tomonlar: faol ishtirok, ijodiy fikrlash, mustaqil ishlash imkoniyati.

W (Weaknesses) – zaif tomonlar: o‘quvchilar tayyorgarligi turlicha bo‘lishi.

O (Opportunities) – imkoniyatlar: zamonaviy texnologiyalar, internet resurslari, interfaol metodlar.

T (Threats) – tahdidlar: texnik vositalar yetishmasligi, vaqt cheklovlari.[5]

Quyidagi SWOT tahlili aynan “Issiqlik hodisalari” mavzusi uchun ishlab chiqil-

2-jadval.

“FSMU” metodi

Bosqich	Savol shakli	O‘quvchidan talab qilinadi
F – fikr	“Siz nima deb o‘ylaysiz?”	O‘z fikrini aniq va qisqa aytadi.
S – sabab	“Nima uchun shunday deb o‘ylaysiz?”	Asos, sabab yoki dalil keltiradi.
M – misol	“Bunga misol keltira olasizmi?”	Haqiqiy hayotdan yoki ilmiy dalillardan misol beradi.
U – umumlashtirish	“Shunday qilib, qanday xulosa chiqara olasiz?”	Fikrini umumlashtiradi, yakunlaydi.

ladan, o‘quvchilarda mantiqiy izchillikni shakllantiradi, fikrni dalillar bilan mustahkamlashni o‘rgatadi, yozma va og‘zaki nutqni rivojlantiradi shu bilan birga, bahs-munozara va esse yozishda o‘rinli hisoblanadi. Quyidagi 1-jadvalda “FSMU” metodida qo‘llaniladigan yoki o‘quvchilarga beriladigan savollar hamda o‘quvchidan talab qilinadigan bilimlar keltirilgan.

“Moddaning agregat holati va fizik o‘zgarishlar” mavzusida “FSMU” metodi bo‘yicha namuna keltirilgan. Bu topshiriqni bajarish orqali o‘quvchilar fikrni izchil ravishda **fikr – sabab – misol – umumlashtirish** bosqichlarida ifodalash ko‘nikmasi rivojlanadi va yangi mavzuni dalillar va misollar orqali asoslashni o‘rganadi.

“FSMU” metodi bo‘yicha topshiriqni bajarish namunasi

F – menimcha, moddaning agregat holati o‘zgarishi – bu modda tarkibi o‘zgarmagan holda uning tashqi ko‘rinishi, shakli yoki holatining o‘zgarishidir.

S – chunki moddaning qattiq, suyuq va gaz holatlari molekulalarning joylashuvi va harakatiga bog‘liq. Shuningdek, issiqlik ortganda molekulalar tez harakatlanadi, modda qattiqdan suyuqqa, suyuqdan gaz holatiga o‘tadi, issiqlik kamayganda esa aksincha gaz holatidan suyuqqa, suyuqdan qattiq holatga o‘tadi.

M – muzning erishi jarayonida muz (qattiq holat) suvga (suyuqlik) aylanadi, bunda molekulalar o‘zgarmaydi, faqat ularning joylashuvi va harakatlanish darajasi o‘zgaradi. Xuddi shuningdek, suvning bug‘lanishi suyuq holatdan gaz holatiga o‘tish bo‘lib, bu jarayonda ham suvning tarkibi o‘zgarib, boshqa modda hosil qilmaydi, ya’ni u baribir H_2O bo‘lib qoladi. Suvning muzlashi esa ushbu jarayonlarning teskarisi bo‘lib, suyuqlikning qayta qattiq holatga o‘tishi hisoblanadi. Jarayonlar teskari bo‘lishiga qaramay, ularning barchasi moddani bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishini ifodalaganligi sababli fizik o‘zgarishlar sifatida qaraladi.

U – moddaning holati o‘zgarishida faqat molekulalarning joylashuvi va harakati o‘zgaradi, tarkibi o‘zgarmaydi. Shuning uchun. agregat holatlarning almashishi – fizik o‘zgarish. Bu bilim o‘quvchilarga tabiatdagi jarayonlarni (erish, bug‘lanish, kondensatsiya, muzlash) ilmiy asosda tushunishga yordam beradi. Yuqorida keltirilgan modellar, yondashuvlar va metodlardan tashqari quyidagi amaliy metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi, dars jarayoni yanada interaktiv va mazmunli bo‘ladi.

“Barchaning aqli birgalikda ishlasa sinf jonlanadi” nomli amaliy mashg‘ulot o‘quvchilarni hamkorlikda fikrlash va jamoaviy qaror qabul qilish jarayoniga faol jalb etadi [7]. Guruhlarda rollarni (ekolog, muhandis, jurnalist, ijtimoiy faollar, moliyachi) taqsimlash orqali har bir o‘quvchi o‘zining individual qarashi, tajribasi va mas’uliyatini jamoaga qo‘shadi. Bu esa, o‘quvchilarda o‘zaro hurmat, tinglash madaniyati, dalillangan fikr bildirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar bir-birining fikrini qadrlashni o‘rganadi, ijtimoiy masalalarga turli rollar nuqtayi nazaridan yondashish orqali muammoni ko‘p qirrali tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Natijada, sinfda faollik ortadi, ijodkorlik kuchayadi va o‘quvchilar o‘zlarini jamoaning muhim a’zosi sifatida his qiladilar. Umuman olganda, ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarni hamkorlikda ishlashga, mas’uliyatli va asosli qaror qabul qilishga, fikrlar xilma-xilligini qadrlashga o‘rgatadi hamda sinfda ijtimoiy-psixologik muhitning yanada sog‘lom va qulay bo‘lishiga xizmat qiladi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti o‘quvchi shaxsini ta’lim jarayonining markaziga qo‘yib, uning ehtiyojlari, qiziqishlari va individual rivojlanish sur’atlarini inobatga olgan holda o‘qitishni tashkil etadi.[8] Bunday muhitda o‘quvchi nafaqat ma’lumot oluvchi,

balki faol ishtirokchi, mustaqil izlanuvchi va o‘z o‘rganish jarayonini boshqaruvchi subyekt sifatida shakllanadi. Natijada, ularning mustaqil fikrlashi, muammolarni tahlil qilish va hal etish ko‘nikmalari rivojlanadi, o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi ortadi, o‘z ustida ishlashga, bilimni izlab topishga intilish kuchayadi. Hamkorlikda ishlash, muloqotga kirishish, fikr almashish va jamoada qaror qabul qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar ham yanada mustahkamlanadi. Bu esa, kelajakda ijtimoiy faol, mas’uliyatli, tashabbuskor va ijodkor shaxslarning yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

O‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhit bugungi zamonaviy ta’limning asosiy talablaridan biri bo‘lib, unda o‘qituvchi boshqaruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va motivatsiya beruvchi rolni bajaradi. Ta’lim jarayonini shunday tashkil etish uchun HPL (High Performance Learning) yondashuvi, “STAR Legacy” modeli, “SWOT” tahlili, “FSMU” kabi metodlar juda muhim metodik asos yaratadi. HPL yondashuvi o‘quvchilarning yuqori darajadagi fikrlashini rivojlantiruvchi strategiyalarni taklif etib, har bir o‘quvchining intellektual salohiyatini maksimal darajada ochishga yordam beradi. STAR Legacy modeli esa, o‘quv jarayonini muammoli vaziyatlar asosida tashkil qilish, o‘quvchining fikrlashi, tahlil qilishi va samarali yechim topishiga imkon yaratadi. SWOT tahlili o‘quvchilarning o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, o‘z ustida ishlash strategiyasini shakllantirishga yordam beradi, “FSMU” metodi esa fikrni ravon, mantiqiy va asosli tarzda ifoda etishni o‘rgatadi. Ushbu metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi ta’lim jarayonini yanada boyitadi, uni mazmunan chuqur, amaliyotga yaqin va o‘quvchi faoliyatiga yo‘naltirilgan holga keltiradi. Natijada ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi, o‘quvchilar mustaqil, ijodiy fikrlaydigan, o‘z fikrini asoslay oladigan, hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanadi. Shu tariqa, o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhiti nafaqat o‘quv jarayonini samaraliroq qiladi, balki jamiyat uchun kerakli bo‘lgan tashabbuskor, innovatsion fikrlaydigan va raqobatbardosh avlodni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karl R. Rogers. Freedom to Learn: pedagogik yondashuv asosiy klassik asari. – Merrill: Macmillan College Publishing Company, 1994. – 434 b.

2. Komitet: National Research Council va “Committee on Learning Research and Educational Practice”. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School // ilmiy-amaliy qo‘llanma. – Washington: National Academies Press, 2000. – 384 b.

3. Maryellen Weimer. Learner-Centered Teaching: Five Key Changes to Practice // ilmiy-amaliy qo‘llanma, Jossey-Bass, San Francisco. 2002. – 288 b.

4. Daniel L. Schwartz, Sean Brophy, Xiaodong Lin, John D. – Bransford // Software for managing complex learning: Examples from an educational psychology course, ilmiy maqola. Educational Technology Research and Development, 1999. 39-59 b.

5. Moiseeva N.A. SWOT-анализ в образования. “Учитель нового века: взгляд молодого исследователя”, ilmiy maqola. – Saransk: 2021.161-164 b.

6. Ayupova M.Y. Maxsus pedagogika // o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: 2023. – 139-b.

7. H.Davletova, A.Minavvarov, X.Ostonova, S.Rashidova, A.Axmedova. Tabiiy va iqtisodiy fanlar o‘qituvchilarini kasbiy rivojlantirish metodikasi // o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: 2025. – 172 b.